

## KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA DIQQAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Ubaydullayev Sunnatillo Baxtiyor o'g'li*

*Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on  
tumani 107-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda diqqat samaradorligini oshirishning ahamiyati, diqqat turlari va uni rivojlantirish usullari o'rganilgan. Diqqatni shakllantirish psixologik mashqlar, o'quv jarayonida metodikalar, oilaviy qo'llab-quvvatlash va sog'lom turmush tarzi orqali amalga oshirilishi mumkinligi ko'rsatildi. Maqola kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv va shaxsiy rivojlanishida diqqat samaradorligining muhimligini ta'kidlaydi.*

**Kalit so'zlar:** diqqat, kichik maktab yoshi, diqqat samaradorligi, psixologik mashqlar, o'quv jarayoni, ota-ona yordami, sog'lom turmush tarzi

### KIRISH

Kichik maktab yoshi – bolalar uchun bilim va ko'nikmalarni faol egallash davri bo'lib, bu davrda diqqat qobiliyati markaziy rol o'ynaydi. Diqqat samaradorligi bolaning o'qish, yozish, matematik ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy va emotsional sohalarida muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar bolalarda diqqatni shakllantirish va uni oshirish yo'llarini bilishi zarur.

#### **Diqqat tushunchasi va uning ahamiyati :**

Diqqat – bu ma'lum bir ob'ektga yoki vazifaga ongli ravishda e'tibor qaratish qobiliyatidir. Kichik maktab yoshidagi bolalarda diqqatning rivojlanishi quyidagi jihatlarga ta'sir qiladi:

O'quv faoliyati: diqqat samaradorligi bolalarning yangi ma'lumotlarni tez va to'liq o'zlashtirishiga yordam beradi.

Hissiy barqarorlik: bolalar diqqatni jamlash orqali chalg'ituvchi omillarga kamroq ta'sirlanadi.

Ijtimoiy ko'nikmalar: sinfdoshlar bilan muloqotda e'tiborli bo'lish ijobiy xulq-atvorni shakllantiradi.

Kichik maktab yoshida diqqatni rivojlantirish orqali o'quvchilarda mustahkam xotira, fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlari ham oshadi.

#### **Diqqat turlari**

Psixologik tadqiqotlar diqqatni bir necha turga bo'lish mumkinligini ko'rsatadi:

Ma'lum bir vazifaga yo'naltirilgan diqqat (selektiv diqqat) – bolaning bir vazifaga konsentratsiyanishi.

Barqaror diqqat – vazifa davomida diqqatni saqlash qobiliyati.

Ta'limga yo'naltirilgan diqqat – o'quv jarayonida yangi bilimlarni qabul qilishga qaratilgan.

O'zgaruvchan diqqat – bir vazifadan ikkinchisiga tez o'tish qobiliyati.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun selektiv va barqaror diqqat ayniqsa muhimdir, chunki ular hali mustahkam o'quv ko'nikmalarini shakllantirmoqdalar.

Diqqat samaradorligini oshirish usullari

1. Psixologik mashqlar

Vizual diqqat mashqlari: rasmlardagi farqlarni topish, labirintlar orqali harakat qilish.

Eshitish diqqatini rivojlantirish: qisqa hikoyalarni tinglab, asosiy voqealarni aytib berish.

Motor diqqat mashqlari: rangli shakllarni, geometrik figuralarni to'g'ri joylashtirish orqali diqqatni oshirish.

2. O'quv jarayonida qo'llash

Kichik vazifalarni berish: bolalarni bir vaqtda bir vazifaga e'tibor qaratishga o'rgatish.

Qiziqarli materiallardan foydalanish: o'quv jarayonini o'yin va interaktiv mashg'ulotlar bilan boyitish.

Qisqa tanaffuslar: bolalar diqqatni uzoq muddat davomida saqlay olmasligi sababli, mashg'ulotlarni qisqa segmentlarga bo'lish.

3. Oilaviy muhitda qo'llash

Ota-ona bilan o'yinlar: shaxmat, domino, "kim tez topadi" kabi o'yinlar diqqatni oshiradi.

O'qish odatlarini shakllantirish: har kuni qisqa va qiziqarli matnlarni birgalikda o'qish.

Chalg'ituvchi omillarni kamaytirish: televizor, telefon va boshqa diqqatni yo'qotuvchi omillarni boshqarish.

4. Fizik faoliyat va sog'lom turmush

Sport mashqlari: yugurish, gimnastika, o'yin sporti diqqatni oshiradi.

To'g'ri uyqu va ovqatlanish: kichik maktab yoshidagi bolalarning diqqat samaradorligi yetarli uyqu va balansli ovqatlanish bilan bevosita bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgash bola o'z atrofidaqlar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayotini tubdan o'zgartirishni, unga yangi majburiyatlar, o'quv faoliyati talablariga bo'y so'nish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi.

Oila aʼzolarining bola oʻquv faoliyati yutiqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei oʻzgarganligini toʻla his etishga oʻziga nisbatan munosabatning oʻzgarishiga asos boʻladi. Taʼlim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash koʻlami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobilayati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular oʻrtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega boʻladilar. Bola maktabga qadam qoʻyishi bilanoq unga boʻlgan munosabat va talablar orqali oʻziga xos boʻlgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratish oila, maktab taʼlim tizimiga ulkan maʼsuliyat hissini yuklaydi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilar ishonuvchan, tashqi taassurotlarga beriluvchan boʻladilar. Buyuk alomallarimiz taʼkidlaganidek, kishining feʼl atvori hammadan koʻra koʻproq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo boʻlgan sifatlar mustahkam oʻrnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkichi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarini tarkib toptirish yukask axloq normalarini shakllantirish uchun butun maʼsuliyat boshlangʻich sinf oʻqituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida oʻqituvchining har bir gapi har bir hatti harakati taʼsir koʻrsatish uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki oʻquvchilar oʻqituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergan topshiriqlarni bekamu kust bajarishga intiladilar. Toʻgʻri mulohaza yurtishga oʻrganish nomaʼqul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shugʻulanish kerakligini, burch hissini tushuntirish ular bilan oʻqilgan kitoblarni, koʻrilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tugʻiladi.

Kichik maktab yoshdagi oʻquvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi kozʻlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart. Maʼlumki, oquvchilarning psixologik xususiyatlari har xil boʻlib, bir oʻquvchiga muvaffaqiyat bilan qoʻllangan tarbiyaviy taʼsir vositasi boshqa birga qoʻllanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar oʻquvchilarga yakkamayakka yondoshib amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish oʻqituvchi oʻquvchilarning xususiyatlarini qanchalik oʻrganganligiga bogʻliqdir. Taʼlim jarayonida har bir oʻquvchining psixik dunyosiga oqilona yoʻl topa olish muvaffaqiyatlarning garovidir.

Taʼlim - tarbiya jarayonida bolalarni hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki, bunda bola shaxsining kichik yoshida oʻquvchilarda tarkib topgan xususiyatlar toboro boyib va mustahkamlanib boradi. Maktab taʼlimining dastlabki



yillaridagi bilishga boʻlgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga boʻlgan qiziqish koʻproq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi.

Psixologlarning taʼkidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olinadigan hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil boʻladi. Oʻqish faoliyatida kichik yoshdagi oʻquvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun boʻlgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqishoʻquvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo boʻladi va uning shaxsiy individual sifatida oʻquvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. Oʻquvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan hilma – xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar oʻquvchilarning yoshligidan paydo boʻla boshlaydi.

Taʼlim jarayoni kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar echish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zoʻr berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Bu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatni toʻplash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi.

Ushbu matritsa kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar diqqatining koʻchishi, taqsimlanishi, mahsuldorligi va barqarorligini aniqlash uchun ishlatiladi. Kichik maktab yoshidagi bolaga Landolt xalqachalari chizilgan blank taqdim etiladi va unga quyidagi qoʻllanma beriladi. “Hozir biz sen bilan “ Diqqatli boʻl va iloji boricha tezroq ishla“ nomli oʻyin oʻynaymiz. Sen hozir boshqa oʻrtoqlaring bilan musobaqalashasan. Keyin musobaqada kim yutganini koʻramiz. Seni bajargan ishlaring oʻrtoqlaringnikidan yomon boʻlmaydi deb oʻylayman. Shundan soʻng bolaga Landolt xalqachali blank koʻrsatiladi va u nima qilishi kerakligi tushuntiriladi. U xalqachalarni qatorlar boʻyicha diqqat bilan qarashi va ular orasidan joyidan oʻzgartirib chizilgan xalqachalarni topishi va ularni belgilab qoʻyishi kerak. Ish 5 minut davomida bajariladi. Har bir minutdan soʻng eksperimentator “chiziq” deb aytadi. Bu vaqtda bola toʻxtagan joyiga chiziq tortishi kerak boʻladi. 5 minut oʻtganidan soʻng eksperimentator “toʻxta” deb aytadi va bola ishni toʻxtatishi kerak va oʻsha erga ikkita chiziq tortib qoʻyishi zarur. Ish tugatilganidan soʻng eksperimentator bola tomonidan har bir minut ichida hamda 5 minut davomida koʻrib chiqilgan xalqachalar sonini aniqlaydi.

Shuningdek, ishlash jarayonida har bir minutda va 5 minut davomida yoʻl qoʻyilgan xatoliklar hisoblaniladi. Kichik maktab yoshidagi bola maʼlum darajada oʻz faoliyatini oʻzi mustaqil rivojlantira oladi. U oʻz rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishni soʻz bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish soʻzsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar oʻz diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyani tashkil etilishini talab etadi. Oʻquv faoliyati boladan berilgan

o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi Birinchi signal sistemasi ikkinchi signal sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmali harakatli xotira ustunlik qiladi.

Shuning uchun ham ular nazariy qonun va qoidalaridan, mavhum tushunchalardan ko'ra yaqqol ma'lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar ta'lim olish munosabati bilan mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda qoldirish qobiliyati o'sib boradi. Esda qoladigan materialning hajmi kengayib boradi, materialning mazmunini tushunish ham chuqurlashadi va murakkablashadi. Ba'zan boshlang'ich sinf o'quvchilari, hatto mazmuni tushunarli bo'lgan materialni ham ma'nosiga e'tibor bermasdan, mexanik ravishda o'rganib oladilar. Respublikamizning psixolog olimi E.G'.G'ozievning fikriga ko'ra, buning sabablari quyidagilar:

1) ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani uchun ham ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi;

2) o'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab etmaydilar, natijada uning "to'g'ri tushuntirib ber" degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar;

3) ularning nutq boyligini etishmasligi (ilmiy atamalar, til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi;

4) o'quvchilar matnni to'g'ri usullar bilan eslab qolishni bilmaydilar. Bunday holat shu yoshdagi bolalarda albatta bo'lishi kerak emas. Mexanik esda qoldirish ko'pincha o'qituvchilar o'quvchilarida mantiqiy xotirani o'stirishga etarli e'tibor bermagan hollarda bo'lishi mumkin. Ta'lim jarayonida o'quv materialining ma'nosini, mohiyatini, turli mulohazalarni, dalillarni, ilmiy asoslarini eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Birinchi sinfdan boshlab ixtiyoriy esga tushirish qobiliyati tez rivojlana boshlaydi.

O'quv materialini muayyan sistema bilan xotirlash faqat ixtiyoriy esga tushirish yo'li bilan bo'lishi mumkin. O'quvchilar tushuncha va qoidalarni ta'riflab berolmay kolganlarida yoki ta'riflash mumkin bo'lmagan paytlarda tasvirlab, taqqoslab, xarakterlab, misollar bilan ko'rsatib beradilar. Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat, albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvurini



rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu Yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur, harakatlar qilishga qiynaladilar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, Shuningdek ertak va hikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'z xayollari va tasavvurlariga asoslangan holda qiziqarli ertak va hikoyalarni o'zlari mustaqil ravishda to'qiy oladilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar.

Shu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Juda ko'p multfilmlar ana shunday bolalarning tasavvurlari asosida yaratilgan. Turli tasavvurlar zamirida ularning qo'rquvni engishi, do'st topishi, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari, tasavvur terapevtik natijaga olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ham ko'pincha xayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qahramonlik qilishini tasavvur qiladi.

O'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatlari motivatsiyasi uchun zamin tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan bo'lgan tasavurning bolalar hayotidagi ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqqan oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Maktabning birinchi sinfiga kelgan bolada xayol etarli darajada rivoj topgan bo'ladi va u xilma-xil tasavvurlarning kattagina zaxirasiga ega bo'ladi. O'qish jarayonida u faqat idrok va xotira tasavvurlariga tayanib qolmasdan, balki shu bilan birga, xayolida yaratilgan tasavvurlarga ham tayanib, o'rgatilayotgan materialni yaqqol tarzda o'zlashtira boradi.

Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini etarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'ynaydigan o'yinlarda ham ularning xayolini o'sishi davom etaveradi. O'quvchilar o'z o'yinlarida turli narsalarni yasaydilar, turli erlarga sayohat qiladilar. Bunday o'yinlarlardan o'quvchi mazmundor taassurotlar oladi va unda turli tasavvurlar hosil bo'ladi, uning ijodiy, qurish-yasash va badiiy qobiliyatlari o'sadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining xayoli o'zining kengligi va mazmundorligi jihatidagina o'zgarib qolmasdan, balki yo'nalishi jihatidan ham o'zgaradi. Kichik maktab davridagi o'quvchining ixtiyorsiz xayoli ham, ixtiyoriy xayoli ham maktabgacha yoshdagi bolalarning xayolidan o'zining barqarorligi bilan

farq qiladi. Maktabga kelish arafasida bolaning soʻz boyligi oʻz fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6 yoshdagi normal rivojlanayotgan bola oʻz nutqida 3000-7000 soʻzni ishlatadi. Bolalar nutqining oʻsishida ularning maktabdagi oʻqish faoliyati ayniqsa, katta rol oʻynaydi. Bola maktabga kelmasidan oldin oʻzi qanday gapirayotgani ustida oʻylab oʻtirmasdan, oʻz nutqidan faqat aloqa va bilish vositasi tariqasida foydalanadi.

Maktabda esa bola gaplashayotgan til oʻqitiladigan va oʻrganiladigan fan boʻlib qoladi. Maktabda oʻqiyotgan: bola oʻz ona tilining grammatikasi bilan shugʻullanishi natijasida, oʻz nutqini grammatika qoidalariga muvofiq ongli ravishda tuzishni oʻrganadi. Grammatikani oʻrganish jarayonida bola nutqining fonetika jihati aniqlanadi, nutqning morfologik jihati toʻgʻri boʻlib boradi, sintaksis tuzilishi esa ancha takomillashadi. Nutqning ayrim jihatlariga xos boʻlgan bu sifatlar faqat grammatikani oʻqib oʻrganish natijasidagina oʻsib qolmasdan, balki, shu bilan birga, maktabda oʻqitilayotgan boshqa fanlarning taʼsiri ostida ham oʻsadi. Maktabda oʻqitilayotgan hamma fanlarni oʻrganish va shu fanlar bilan shugʻullanish jarayonida oʻquvchi nutqining lugʻat zaxirasi boyiydi, soʻzlarning mazmuni chuqurlashadi va kengayadi, har qaysi soʻzning, har kaysi terminning maʼnosi aniqlanadi.

Boshlangʻich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, sifat, son, feʼl va bogʻlovchilardan iborat boʻladi. Bu yoshdagi bolalar oʻz nutqlarida qaysi soʻzlarni ishlatgani afzal-u, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, uni oʻzlashtirishi maʼlum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalar nutqining oʻziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular oʻz fikrlarini bayon etish uchungina emas, balki oʻz suhbatdoshining diqqatini oʻziga jalb qilish uchun ham gapiradilar. Bu davrda bolaning yozma nutqi ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumllarni toʻgʻri tuzish va soʻzlarni toʻgʻri yozishga maʼlum talablar qoʻyilganligi bilan xarakterlanadi. Bola soʻzlarni qanday eshitgan boʻlsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni toʻgʻri talaffuz etishga va yozishga oʻrganishi zarur.

### XULOSA

Kichik maktab yoshida diqqat samaradorligini oshirish bolalarning oʻquv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga sezilarli taʼsir qiladi. Psixologik mashqlar, oʻquv jarayonidagi metodikalar, oilaviy qoʻllab-quvvatlash va sogʻlom turmush tarzini birlashtirish orqali diqqatni samarali rivojlantirish mumkin. Shu tariqa, bolalar oʻqishda muvaffaqiyat qozonadi va mustahkam shaxsiy rivojlanishga erishadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Ivanov P.I. M.Zufarova “Umumiy psixologiya” T.: 2008 y
2. Jo'raev S. , F.Qodirov “Kichkintoylar nutqini o'stirish” T.: 2005 y.

3. Nishonova Z. Alimova G. “Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi” T.: 2006 y
4. Nishonova Z.T. Do`stmuxammedova Sh.A. To`lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2011
5. Voxidov M. “Bolalar psixologiyasi” T.: O`qituvchi. 1982 y.
6. Султонова Н.А. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В СЕМЬЕ // SCIENTIFIC PROGRESS 2021// 1 (6), 631-635

